



ZAMONAVIY DUNYODA KIBERBULLING VA UNGA QARSHI KURASH

Sattorova Mohinur Sherali qizi

Nizomiy nomidagi TDPU

I-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada kiberbulling haqida ma'lumot yoritilgan bo'lib, uning mazmunida shaxsga nisbatan sodir etiladigan zo'ravonliklar qatorida kiber zo'ravonlik jinoyatining jamiyatga va insonlarga ta'siri, uning kelib chiqish sabablari, hamda o'ziga xos xususiyatlari va unga qarshi kurashish usullari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Axborotlashgan jamiyat, zo'ravonlik, kiber zo'ravonlik, ijtimoiy tarmoq, infratuzilma, inson yashash tarzi, xavf.

Kirish

Bugungi kunda jamiyatda tarqalib borayotgan zo'ravonlikning yana bir turi kiber-zo'ravonlik hisoblanadi. Kiberbulling bu ijtimoiy tarmoqlardan, messengerlardan, o'yin platformalaridan, shuningdek mobil telefonlardagi ilovalardan foydalanagan holda qasddan haqorat qilish, tahdid qilish, tuhmat qilish, boshqalarga zarar yetkazuvchi ma'lumotlarni yetkazish. Onlayn zo'ravonlikning asosiy maqsadi zo'ravonlik qurbonini g'azablantirish, xafa qilish yoki sharmanda qilishdir.

Zo'ravonlikning ushbu turi hozirgi davrda texnologiyalarning keng ko'lamda rivojlanishi va aholining aksar qatlami ijtimoiy tarmoqdan foydalanishi bilan bog'liq bo'lib, har kunlik hayotining eng muhim infratuzilmasiga aylanganidadir. Chunki internet inson yashash tarzini o'zgartirib, u orqali mutassil davom etuvchi, takroriy va uzoq vaqt davomida birovning sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi harakatni amalga oshirishi ham mumkin. Hozirgi kunda insoniyat yangi chiqayotgan texnologiyalardan har kuni foydalanib, o'z axborotini eng samarali yo'l bilan ham xavfsiz saqlay olmayapti va aynan shuning uchun kiber jinoyatlar kundan-kunga ko'payib bormoqda. Hozirda 80%dan ortiq ish yurituv internet orqali amalga oshirilmoqda, shuning uchun bu soha katta miqdordagi eng yaxshi sifatli xavfsizlikni talab qiladi. Kiber xavfsizlikning ko'lami faqatgina axborot texnologiyalari sanoatida axborotni himoyalash emas, balki kibermakon kabi boshqa ko'pgina turlarga ham bo'linadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Doktor Lenor Uolker nazariyasiga ko'ra, oilaviy zo'ravonlik takrorlanishi ortib boradigan harakatlar turkumidan iborat. Bugungi kunda oiladagi huquqbuzarliklar va undagi xotin-qizlarni zo'ravonlikdan himoya qilish borasida jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikka doir murosasizlik muhitini yaratish uchun chora-





tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mamlakatimizda xotin-qizlarni zo‘ravonlikdan himoya qilishga oid bir qator xalqaro hujjatlar ratifikatsiya qilindi¹. Qolaversa inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlarda shaxsni zo‘ravonliklardan, shu jumladan oilada sodir etiladigan jinoiy zo‘ravonliklardan himoya qilish mexanizmi mustahkamlab qo‘yilgan. Inson huquqlari bo‘yicha umumjahon deklaratsiyasi, fuqarolik va siyosiy huquqlar bo‘yicha xalqaro kelishuv hamda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo‘yicha xalqaro kelishuv oilani jamiyat asosidagi guruh deb tan oladi va shaxsni oiladagi zo‘ravonliklardan himoya qiladi. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro qonunchilik barcha ishtirokchi davlatlar uchun, shu jumladan huquqni muhofaza qiluvchi organlarining xodimlari uchun majburiy hisoblanadi. Milliy qonunchiligimizda ham inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, uning hayoti, sog‘lig‘i, qadr-qimmatini va boshqa qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalalari ustuvorlik kasb etadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida: “Hech kimning qiynoqqa solinishi, zo‘ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas”,² deb qayd etilgan. So‘nggi yillarda qabul qilinayotgan qonun hujjatlari, ilgari “yopiq” bo‘lgan zo‘ravonlik mavzusini keng yoritish imkonini berdi. Ya‘ni ichki ishlar organlarining zo‘ravonlikka qarshi kurashdagi faoliyatlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar zo‘ravonlikdan himoya qilish uchun muhim asos vazifasini o‘tamoqda. Amaliyotda ko‘p hollarda, ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan jabrlanuvchi va zo‘ravonlik qanday shaklda bo‘lmasin, uni “bosti-bosti” qilish holatlari ko‘plab uchramoqda. Ayniqsa, ma‘muriy javobgarlik nazarda tutilgan tuhmat va haqorat qilish holati bo‘yicha qo‘zg‘atilgan ma‘muriy ishlar sudgacha yetib bormasdan, ariza bergan tarafni o‘z arizasini qaytarib olishga undash yoki yarashtirish bilan yakunlash holatlari ham mavjud. Afsuski, bunday holatlarning mavjudligi oila turmush doirasidagi zo‘ravonlik bilan bog‘liq huquqbuzarliklarning latentlik darajasi oshib ketishi hamda takrorlanishiga olib kelmoqda. Natijada ayrim huquqbuzar shaxslar sodir etgan hatti-harakatlari uchun hech qanday javobgarlikka tortilmasdan qolmoqda. O‘z xizmatlari yuzasidan ichki ishlar organlari xodimlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri jabrlanuvchilar va huquqbuzarlar bilan to‘qnashib, zo‘ravonlikning guvohi bo‘ladilar. Ularning malakali yordam ko‘rsatishlari, aybdor shaxslarning javobgarlikka tortilishiga jabrlanuvchining keyingi taqdiri va hayotiga bog‘liqdir. Odamlar ijtimoiy

¹ Ojjeva E. N. Bulling zo‘ravonlikning bir turi sifatida. Maktab zo‘ravonligi // Evropa qit‘asining ilmiy sanoati / Konferentsiya ma‘ruzalari to‘plami. - Belgorod: Rusnauchkniga, 2008 yil.

² B.B.Murodov. Jinoyat-protsessual qonun normalarini erkinlashtirish yo‘llari // Oliy yuridik o‘quv yurtlarida inson huquqlari muhofazasini ta‘minlovchi fanlarning o‘qitishning zamonaviy muammolari. Toshkent. O‘zbekiston Milliy universiteti huquqshunoslik fakulteti. – 2009. B. 66-69.





tarmoqlarga tez berilib ketgani uchun xakerlar ularni o'zlari talab qilgan ma'lumotni olishda vositachi sifatida foydalanmoqdalar. Shuning uchun insonlar kerakli ma'lumotni yo'qotmasliklari uchun ijtimoiy tarmoqlarda tegishli choralarni ko'rishlari zarur. Ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda millionlab odamlarga eng qulay axborot ulashish vositasi bo'lgani sababli, yangi texnologik himoya platformalarini yaratish eng muhim va hozirgi davr talabi sifatida xavfsiz axborot almashinuv imkoniyatini bizga beradi. Shuningdek ijtimoiy tarmoqlar orqali odamlarga qarshi kiber jinoyatlar sodir etilishi ehtimoli mavjudligiga qaramay, odamlar ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni to'xtata olmayaptilar. Shu sababli, haqiqiy zarar yetkuncha ularni ogohlantiradigan yechimlarga ega bo'lish bugungi kunning dolzarb mavzusidir. Zero har bir inson ma'lum qoidalar va to'g'ri texnologiyalarni qo'llagan holda ijtimoiy tarmoqlarni erkin foydalana olish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Natija va muhokamalar

Bugungi kunda o'smirlar orasida ushbu holatlar ko'p kuzatilayotganini inobatga olib, aynan o'smirlar orasida kiberhujumni oldini olish va hal qilishda oila, ijtimoiy muhit va ta'lim muhim rol tutishini e'tiborga olgan holda oilaviy tarzda axborot madaniyatini kuchaytirish choralarni ko'rish kerak. Bola shaxsini shakllantirishda to'g'ri psixologik ta'sir va ijobiy axloqiy tarbiya me'yorlari uning ongiga singdirilmagan bo'lsa, ularda hujumlar, bezorilik va yomon niyatli xatti-harakatlarga moyil bo'ladi. Bundan tashqari, ba'zi ota-onalar farzandlarining internetdagi xatti-harakatlariga e'tibor bermasliklari yoki haddan ortiq cheklov va tayziq o'tqazishsa ham bolalarda ijtimoiy tarmoq yoki ba'zi manbaalar orqali ham zararli xatti-harakatlarning paydo bo'lishiga sabab qilish mumkin. Shuni anglagan holda bolalarni internet tarmog'idagi zararli kontentdan himoya qilish choralarni ko'rish, ota-onalar va ta'lim muassasalari va xizmat ko'rsatuvchilarning bu boradagi majburiyatini kuchaytirish choralarni ko'rish maqsadga muvofiqdir.

E'tibor qaratishimiz joizki, bizning mamlakatimizda ham axborot xavfsizligini ta'minlashda qator tashkiliy va huquqiy masalalarni hal qilishi, shuningdek, siyosiy va tarbiyaviy choralar ko'rishini taqozo qiladi. Axborot xavfsizligi fuqarolarning kundalik hayotda axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun shart-sharoit yaratib, ularni turfa axborot tahdidlaridan himoya etishning huquqiy-siyosiy ko'rinishidir. Axborot xavfsizligini ta'minlashning yana bir muhim usuli - fuqarolarning axborot madaniyatini yuksaltirish, ya'ni ularda qabul qilgan axborotlarni saralay bilish va ularning umummanfaat uchun xizmat qiluvchi jihatlaridan ongli foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirish bilan bog'liq. Axborot xavfsizligini ta'minlash, uning samaradorligini oshirish sohasida har bir shaxs ma'lum axborotning foydali yoki zararli tomonlarini chuqur idrok etib, ularni qay darajada qabul qilish





mezonlarini ishlab chiqishi, ma'lum axborotning o'z professional-kasbiy faoliyati hamda kundalik hayoti uchun nechog'lik kerak yoki kerak emasligini tushunish va baholash ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur. Boshqacha aytganda, kishilar tafakkurida axborotlarning keragini-kerakka, saragini-sarakka, puchagini-puchakka ajratadigan "filtr" va axborotni qabul qilishda tanqidiy nazar hamda mantiqan mulohaza qilish ko'nikmalari bo'lishi axborot xavfsizligini kafolatlovchi muhim omil hisoblanadi.

Global rivojlanayotgan dunyoda keng tarqalgan kiber zo'ravonlik asosan oilalarga ta'sir kuchini o'tkazmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z ma'ruzalarining birida: «Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi»...deb e'tirof etgan. Shaxsga nisbatan sodir etiladigan zo'ravonlik, albatta uning oilasi uchun ham salbiy oqibat keltirib chiqarishi tabiiy.

Masalan, shaxsning ish joyidagi yoki ta'lim muassasasida sodir etilgan qilmishlar o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi:

-zo'ravo shaxs jabrlanuvchini to'liq nazorat eta oladi, jabrlanuvchi zo'ravondan qochishi va xavfsiz qolishining imkoni yo'q;

-zo'ravonlik bir shaxsning boshqa shaxsga nisbatan ustunlik qilish va uni nazorat qilish maqsadida sodir etiladi;

-deyarli barcha oila a'zolari zo'ravonlikdan jabr chekadilar.

Bundan tashqari jabrlanuvchi zo'ravonga nisbatan kuchli emotsional qaramlikni his etadi va uchinchi shaxs unga yordam bermoqchi bo'lganida, zo'ravondan qo'rqqani bois holatni yashirishga urinadi. Jabrlanuvchining bunday xulq-atvori psixologiyada «Stokgolm sindromi» nomi bilan mashhur³. Chunki qo'rquv emotsional qaramlikni oshirib yuboradi. Jamiyat a'zolari oila ishiga aralashishni xohlamaydilar va jabrlanuvchilarning o'zlari ham oiladagi vaziyat haqida sukut saqlashni afzal biladilar. Shuni unutmaslik kerakki, oilada sodir etilgan zo'ravonlik ko'pincha davriy xarakterga egadir. Kiber zo'ravonlikning ruhiy zo'ravonlikdan farqi zulm o'tkazayotgan shaxsning anonimligi, Internet orqali yoqimsiz xabarlar tunu kun keng ommaga tarqalishi bilan farqlanib, jabrlanuvchiga g'oyat katta azob-uqubat keltirishi bilan ifodalanadi. Internet tarmog'idan foydalanib, ish yoki o'qish joyi, oilada turli xil haqoratlar, tuhmat, ta'na, mish-mishlar, uydirma xabarlar tarqatishda ifodalanadi. Shuningdek, Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali insoning ruhiyatiga qattiq ta'sir etuvchi, uni iztirobga soluvchi beshafqat munosabat va zo'ravonlik sahnalarini namoyish etishni ham shaxsga bo'lgan zo'ravonlik, deb e'tirof etishimiz mumkin.

³ Ruhland E. G. Maktabda zo'ravonlikni qanday to'xtatish kerak. Mobbing psixologiyasi / Per. N. Shinkarenko. - Ibtido, 2012. - 264 p. - (Maktabdagi psixolog). - ISBN 978-5-98563-289-7.





Alohida diqqat qaratish kerak bo'lgan jihat shundagi bugun siz kimdir haqida haqoratomuz postni yoqtirsangiz yoki yuborsangiz ham, bilingki bu ham kiberbullingdir. Ma'lumki, tahqirlangan insonda umidsizlik, jizzakilik, norozilik, jaxl, tushkunlik holatiga moyillik va noto'g'ri qarorlar qabul qilishga bo'lgan harakat paydo bo'ladi. Shuning uchun ham fuqarolarimizning internetdagi va hayotdagi pozitsiyasidan, qat'iy nazar, media savodxon bo'lish zarur.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, mamlakatimizda bugungi kunga kelib ushbu hodisaga nisbatan qarshi kurashish mexanizmi to'liq shakllangan va bugungi kunda yana kuchli islohotlar va ushbu holatlarga qarshi kurashish mexanizmi yuzasidan yanada kuchli ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasining "Bolalarni ularni sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risidagi" Qonunida "bolalar ongiga g'ayriqonuniy axborot-ruhiy ta'sir ko'rsatilishining, ularga hiyla ishlatilishining, bolalarni g'ayriijtimoiy harakatlarga undovchi axborot mahsuloti tarqatilishining oldini olish, shuningdek ushbu sohadagi huquqbuzarliklarni profilaktika qilish" yo'nalishi davlat siyosatining tarkibiy qismi sifatida belgilangan.

Buni oldini olishda voyaga yetmagan yoshlarning ta'lim-tarbiyasini takomillashtirish, ularni vatanparvarlik, milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, jonajon Vatanimiz ravnaqi yo'lida mamlakatimiz kelajagi vakillarining rolini oshirish masalalari alohida belgilab olish muhim ahamiyatga ega. Jamiyatimiz kelajagi yosh avlodni qanday tarbiyalash bilan bog'liq. Zero, yoshlar mamlakatimizning ertangi avlodi sifatida davlatimiz ravnaqi uchun yo'naltirishi muhimdir. Shu jihatdan, yosh avlodni to'g'ri tarbiyalash uchun butun jamiyat mas'ul, har qanday huquqbuzarliklarning oldini olishda barchamiz tashabbuskor bo'lishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ruhland E.G. Maktabda zo'ravonlikni qanday to'xtatish kerak. Mobbing psixologiyasi / Per. N. Shinkarenko. - Ibtido, 2012. - 264 p. - (Maktabdagi psixolog). - ISBN 978-5-98563-289-7.
2. Ojjeva E. N. Bulling zo'ravonlikning bir turi sifatida. Maktab zo'ravonligi // Yevropa qit'asining ilmiy sanoati / Konferentsiya ma'ruzalari to'plami. - Belgorod: Rusnauchkniga, 2008 yil.
3. Kon I.S. Bezorilik nima va u bilan qanday kurashish mumkin? // Oila va maktab. - 2006. - No 11. - S. 15-18.
4. Bolalar va o'smirlar psixoterapiyasi / Ed. Devid Leyn va Endryu Miller. Per. N. A. Muxina. - Sankt-Peterburg: Pyotr, 2001. - S. 240-274. -





5. Kirill Xlomov. O'smirlik psixologiyasi: zo'ravonlik muammosi. Maktabdagi bezorilik haqida, bezorilik sabablari va jabrlanuvchilar va tajovuzkorlarning xususiyatlari (2017 yil 11 iyul). Olingan: 2018 yil 21-may.

6. Dan Olveys. Maktabda bezorilik: biz nimani bilamiz va nima qila olamiz. - Malden: Blackwell nashriyoti, 1993 yil.

7. B.B.Murodov. Jinoyat-protsessual qonun normalarini erkinlashtirish yo'llari // Oliy yuridik o'quv yurtlarida inson huquqlari muhofazasini ta'minlovchi fanlarning o'qitishning zamonaviy muammolari. Toshkent.O'zbekiston Milliy universiteti huquqshunoslik fakulteti. – 2009. B. 66-69.

8. <https://avitsenna.uz/bulling-va-undan-himoyalanih-borasida-psixologning-maslahatlari>

